O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
TA’LIM MENEJMENTI KAFEDRASI
“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

2023-yil 16-iyun kuni Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida o‘tkazilgan “Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida iqtisodiy fanlarni o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLAR TO‘PLAMI

Toshkent 2023

40	**Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li,** MASHG'ULOTLAR DAVOMIDA YOSH SPORTCHILARNI JISMONIY TAYYORLASHGA QO'YILADIGAN VAZIFALAR	159
41	**Azamat Sulaymonov Ilhomovich,** HUMAN-MACHINE RELATIONSHIP IN EDUCATION: POSSIBLE SCENARIO IN 5 YEARS' TIME	163
42	**Tursunov B.H.,** "UGLEVODORODLAR" BO'LIMINI INTERAKTIV METODLAR YORDAMIDA O'QITISH IMKONIYATLARI	165
43	**Feruza Mansurbekova,** IJODKOR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQIY TARBIYANING AHAMIYATI	169
44	**Isayev Atabek Djurabayevich,** RAQAMLI IQTISODIYOTDA PULLAR VA ULARNING TRANSFORMATSIYASI	172
45	**Хакимов Мурод Шавкатович, Батиров Давронбек Юсупович, Маткулиев Уткирбек Исмаилович, Умаров Зафарбек Зарипбоевич, Нурматов Сирожбек Тажибаевич,** ЖИГАР ЦИРРОЗИ ЭТИОЛОГИЯЛИ ПОРТАЛ ГИПЕРТЕНЗИЯ АСОРАТЛАРИНИ ДАВОЛАШДА ЗАМОНАВИЙ КАМИНВАЗИВЛИ АРАЛАШУВЛАР КОМПЛЕКСИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ	176
46	**Egamberdiyeva Umida,** CHARACTERISTICS OF ECONOMIC LITERATURE AND IT'S TRANSLATION	181
47	**Гиесов У.А.,** ПУТИ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА К ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	189
48	**Kurbanov Muzaffar Ummatovich,** UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI PEDAGOGIK JAMOASIDA INNOVATSION TA'LIM MUHITINI YARATISH VA RIVOJLANTIRISH	193
49	**Турсунова Дилноза Адхамжон қизи,** ЎҚУВЧИЛАРДА ТАРИХИЙ ВА МАЪНАВИЙ ИДЕАЛЛАРГА АКСИОЛОГИК МУНОСАБАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТИ	196
50	**Abdumalikova Nilufar Zakirovna,** BO'LAJAK O'QITUVCHILAR KASBIY O'Z O'ZINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	199
51	**Нуриддо Эминов,** БАХШИЧИЛИК САНЪАТИНИ ТАДҚИҚ ВА ТАРГИБ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ	202
52	**Васильченко Ольга Анатольевна,** ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАБОТЫ С ДЕТСКИМ ГОЛОСОМ	206
53	**Махаммаджонова Таманно Муминовна, Усмонова З.М, Набиева Н.М.,** ПУТИ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА К ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ НАУК В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	210
54	**Сотволдиева Мохинур Хазратулло қизи,,** ЎЗБЕК-ИНГЛИЗ ТЎЙ МАРОСИМЛАРИДА МИЛЛИЙ МАДАНИЯТНИНГ АКС ЭТИШИ	214
55	**Халдаров Хикматулла Ахматович, Маматкаримов Камолиддин Зиядулло углы,** УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ПРИОБРЕТЕНИИ ЗНАНИЙ С ПОМОЩЬЮ ЭРГОНОМИКИ	217
56	**Мавлянов Мухиддин Бахриддин ўғли, Қодиров Нуриддин Тўра ўғли, Адилова Мохира Шавкатовна, Эркаев Актам Улашевич,** КОМПЛЕКС NK ВА NPK ЎГИТЛАР ОЛИШ ЖАРАЁНИ ТАДҚИҚОТИ	221
57	**Isroilova Shoira Turg'unovna, Ismailova G.A., Ho'jamova M.F.,** UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUV YO'LLARI	223
58	**Yakubova Zilola Zikirovna,** MA'NAVIY QADRIYATLAR – SOG'LOM AVLODNI TARBIYALASH VOSITASI SIFATIDA	225
59	**Rahmoniva Go'zal Valiyevna,** KICHIK MAKTAB YOSHIDA O'QUV FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI	228
60	**Axmedova Sanobar Ikrom qizi,** YANGILANAYOTGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA RESPUBLIKAMIZDAGI SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	232
61	**Abdullaev Baxtiyor Panji o'g'li,** TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH KONTSEPSIYALARI MAZMUN VA MOHIYATI	235
62	**Atajonova Saidaxon Boratalievna,** TEXNIKA OLIYGOHLARIDA INNOVATSION USUL VA YONDASHUVLARNING TADBIQI	239
63	**Закирова С.Б., Бозорбоева Н.,** МЕСТО ЛОГО-ФАСЦИАЛЬНОГО МАССАЖА ПРИ КОРРЕКЦИИ РЕЧЕВЫХ НАРУШЕНИЙ.	243
64	**Qo'chqorova Ra'no Rasulovna,** AGROKIMYO FANINI BIOLOGIYA FANLARI BILAN O'ZARO INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	247
65	**Meyliyev O.R., Gofurova.K,** YANGI O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT ISLOHATLARI	250
66	**Мамаюсупова Мадина, Муминат Тахирова,** ОСОБЕННОСТИ ВНИМАНИЯ ДЕТЕЙ С СИСТЕМНЫМИ НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ	254
67	**Д.Т.Ғапурова,** РИВОЖЛАНИШИДА НУҚСОНИ БЎЛҒАН БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ НУТҚИНИ ЎСТИРИШ БЎЙИЧА КОРРЕКЦИОН-ПЕДАГОГИК ИШ	257
68	**G'oyibova Nigora Murod qizi,** TIL O'RGANISHDA O'QISH VA YOZISH SAVODXONLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	264
69	**Хилолахон Саидова Рашиджон қизи,** ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ХАМКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	266
70	**Закирова С.Б., Кахрамонова Н.А.,** ИЗУЧЕНИЕ НАРУШЕНИЯ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ В 21 ВЕКЕ	269
71	**Atabayeva Mavjuda Rustamovna,** TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA "KLASTER" METODINING AFZALLIKLARI ("SURXONDARYO O'LKASI GEOGRAFIK O'RNI. YER YUZASI GEOLOGIK TUZILISHI VA FOYDALI QAZILMALARI" MAVZUSI MISOLIDA)	272
72	**Feruza Xoshimova Baxodirovna,** MASOFAVIY TA'LIM MUHITIDA MALAKA OSHIRISH KURSI TINGLOBVHILARINING IJODKORLIK FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	277
73	**Дурдона Мустафоева, Мохинур Маматалиева,** МАХСУС ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБАЛАРНИНГ КРЕАТИВЛИК СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	279
74	**Djurayeva Perdegul Saidovna,** TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TAJRIBA OMILLARINI TATBIQ ETISHDA KREATIV YONDASHUV	284
75	**Isroilov Shermurod Shamsiddin o'g'li, Parmanova Dinora, Rasulov Azizbek,** IQTISOSLASHGAN MAKTAB O'QUVCHILARINING FIZIKA FANIGA BO'LGAN QIZIQISHINI OLIMPIADA MASALALARI ORQALI ORTTIRISH METODIKASI	289
76	**Yusupbayeva Amahgul Saparbayevna, Islomov Umidjon,** DARSDAN TASHQARI XOLLARDA JISMONIY MASHG'LOTLARINI TASHKIL QILISH USULLARI	293
77	**Yagyaeva Elvina Bakhtiyarovna,** METHODOLOGICAL BASES FOR IMPROVING ENGLISH TEACHING THROUGH EFFECTIVE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF HEIs STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF INDIVIDUALIZATION AND DIFFERENTIATION)	299
78	**Shoaxmedova Surayyo Kamilovna,** INKLYUZIV TA'LIM JARAYONI ISHTIROKCHILARINING VAZIFALARI VA ULARNI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK QO'LLAB QUVVATLASH	304
79	**Nazira Baxramovna Fayziyeva, Nilufar Akromjon qizi O'rinboyeva,** PHASEOLUS VULGARIS O'SIMLIGINI KASALLANTIRUVCHI VIRUSNI AJRATISH VA AYRIM XUSUSIYATLARINI O'RGANISH MAVZUSINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI	309
80	**U.K. Aminjonova,** BOLALAR QACHON GAPIRISHI KERAK	315
81	**Egamberganov Jakhongir Kadamboevich,** THE FOCUS ON PEOPLE AND QUALITY EDUCATION IS CRUCIAL FOR ADDRESSING THE ECONOMIC AND SOCIAL CHALLENGES OF THE COUNTRY'S DEVELOPMENT IN THE YEAR AHEAD	318

MA’NAVIY QADRIYATLAR – SOG‘LOM AVLODNI TARBIYALASH VOSITASI SIFATIDA

Yakubova Zilola Zikirovna
Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha talim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
zilolayakubova1979@mail.ru

https://doi.org/10.5281/zenodo.8050302

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga oid ba'zi dalillar va ularning nazariy asoslarini keltiradi. Yoshlarni erkin fikrlashga o‘rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko‘maklashish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishini, shakllantirish uchun zarur bo‘lgan omillar ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *Urf-odat, ma’naviy boylik, aqlli, iymon-e’tiqodli, ro‘za, poklik, fidoyi, ishchan, milliy, kamolot.*

Jamiyat yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o‘z istiqboliga erisha olmaydi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash bundan buyon ham faoliyatimizning eng muhim yo‘nalishi bo'lib qoladi. Xalq yoki millat o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lsagina, o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lini erkin belgilab olishi, yoshlarni o'z milliy qadriyatlari negizida tarbiyalash mumkin.

Yangi O'zbekistonning kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari taraqqiyoti davrida, asriy ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning tarixiy tajribalaridan to'g'ri foydalanib, ularning ibratli ishlaridan saboq olish mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurilishi vazifalarini amalga oshirishga, xalqimizning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.[1]

Yoshlar dunyoqarashida milliy- ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashdan ko'zlangan maqsad ularni faqat o'z qadriyatlariga tayanib yashashga o'rgatish emas, balki shu umumbashariy qadriyatlarni ham o'zlashtirib, mamlakatning o'ziga hos taraqqiyoti unga bog'liqligini hisobga olib yashashga, ishlashga da'vat etishdir. Bundan tashqari, milliy- ma'naviy qadriyatlarni chuqur bilish yoshlar tomonidan mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko‘rsatadi.[3]

Yosh avlodni tarbiyalashda milliy- ma'naviy qadriyatlar juda katta tarbiyaviy kuchga ega. Ularga sodiqlik bizni milliy birlik sifatida jahon miqyosida betakrorligimizni ta'minlaydi. Tilimiz, urf-odatlar, an'ana va udumlarimiz shunchaki o'tmishdan qolgan meros emas, balki o'zligimizni anglash shartidir.

Yurtimizda bugungi kunda ma'naviy etuk va barkamol insonni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xalqimiz milliy ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, milliy an'analarimizning saqlanishi va mazmunan boyishi, shuningdek madaniyat va san'at, ilm- fan, ta’lim tarbiyaning har tomonlama rivojlanishi o'zi, alohida kasb etadi. Ta’lim-tarbiya orqali mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so'z bilan aytganda, barkamol shaxsni voyaga etkazish asosiy maqsad qilib belgilangan. Manaviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati juda katta. Milliy qadriyatlar- tarbiyaning eng ta'sirchan quroli. Undan oqilona foydalanish, farzandlarimiz ongida vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalq-parvarlik tuyg'ularini shakllantirish bugungi kun talabi.

Jamiyatda yoshlar tarbiyasi muammolari har doim kunning birinchi darajali mavzularidan biri bo'lib kelgan. Ayni paytda, dunyoda globallashuv jarayoni tezlashmoqda. Dunyo xalqlari, davlatlar o'rtasida o'zaro aloqalar kuchaymoqda. O'zbekiston ham undan chetda turgani yo'q. Turli xalqlarga xos bo'lgan qadriyatlar O'zbekiston yoshlari hayotiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday muhit xalqaro axborot tizimi, internet, OAV, reklama, turli xil kino ko'rsatuvlari bilan bog'liq asarlar yoshlar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatishi, turli xil qadriyatlarning kirib kelishiga sharoit hozirlaydi.

Yosh avlodni komillikka etaklovchi eng katta kuch — bu kitob va hayotiy saboqlardir. Yoshlarni milliy qadryatlar ruhida tarbiyalash kelajakni, millatni va milliyligimizni boqiy ozod holda ko'rishimiz mumkin.

Vatanga sadoqat, do'stlikka ishonch, oilaga mehr-muhabbat, kattalarga hurmatda kichiklarga izzatda bo'lish tuyg'usini shakllantirsh milliy qadryatlarimizni asl ko'rinishidir. Insonga faqat dunyoda yuz berayotgan voqelik haqida, odob-u axloq qoidalari, mehr va sadoqat tushunchalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun etarli bo'lib qolmaydi. Balki, unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrofmuhitga, mehnatga, kasbga, ilmga, qalban va ruhan o'zga insonlarga mehrli va oqibatli bo'lish tuyg'usini uyg'otishga, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga va atrofida yuz berayogan hodisalarga o'z munosabatini bildira olishiga erishishimiz lozim. Yosh avlodni shu xislatlar bilan voyaga etishlari uchun esa turli yo'llar: kattalarni o'git va nasihatlarini tinglash, undan to'g'ri xulosa chiqara olish qobilyatlarini rivojlantirish orqali; turli vositalar bilan va eng asosiysi yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko'ngildan) yondashish va tinimsiz izlanishlar natijasida erishish mumkin.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda tutgan xolda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy gadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib etish kerak. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo‘q joyda biron narsaning qadr qimmati haqida so'zlash bema'nilikdir.[1]

Respublikamizda bugungi kunda maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishgaalohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim, kasb- hunarlarni egallashi, ma'nan-axloqan, jismonan etuk insonlar bo'lib ulg‘ayishi, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat, fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash" ustuvor vazifa etib belgilangan. Mana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimizdamaktabgacha ta’limni yanada rivojlantirish, uning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar gabul qilind.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolaning ongiga singdirilgan bilim va ma'naviy qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli o'zaro va oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish, bolalar tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish, uyg'un rivojlangan bola shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.[2] Millat taraqgiyoti bilan bog'liq bo'lgan itimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat gilish sharoitlari o'zgarishi

bilan milliy qadriyatlar ham rivolanib borishiga imkon yaratiladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy gadriyatlar asosida tarbiyalash, bu yosh avloddan mill g'oya asosidagi tafakkur, chuqur bilim va ixtisoslikni talab qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda bog'cha yoshidagi davrining o'ziga xos xususiyati shundaki, bu davrda bolalarda xarakter hislatlarining namunalari shakllanib axloqiy xarakterning asoslari vujudga keladi. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va etuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

REFERENCES

1. NATIONAL VALUES OF PRESCHOOL CHILDREN BASICALLY FORMING EDUCATIONAL AND MORAL QUALITIES ZZ Yakubova European International Journal of Pedagogics 3 (01), 65-70
2. ZZ Yakubova MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLANING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIGA PROFESSIONAL YORDAM KO ‘RSATISHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB BILAN HAMKORLIK ISHLARI INTERNATIONAL CONFERENCES 1 (8), 68-73
3. Y.Z Zikirovna EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL TRADITIONS Conference Zone, 257-262
4. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T.:2018 y.
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
6. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.2009
7. Sodiqova.Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. T:. “Tafakkur sarchashmalari”, 2013
8. Muxsiyeva A.Sh. “Oila pedagogikasi”. O’quv qo’ll. T.; “TDPU”.2017